



Phonetic and prosodical means in perlocation

Ziyoda MADUMAROVA¹

Andijan State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025

Received in revised form

15 March 2025

Accepted 25 April 2025

Available online

15 May 2025

Keywords:

phonation,
melody,
tone,
intensity of sounds,
tempo and pause,
melodica,
phonation,
articulatory states,
speech tempo,
aspiration,
re-aspiration.

ABSTRACT

This article discusses the role of phonetic and prosodic means in the performance of a perlocutive act, factors such as phonosemantic, alliterative and rhythmic properties of phonetic and prosodic means.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3-pp146-150>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Perlokutsiyada fonetik va prosodik vositalar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

fonatsiya,
ohang,
ton,
tovushlarning intensivligi,
temp va pauza,
melodika,
fonatsiya,
artikulyasion holatlar,
nutq tempi,
aspiratsiya,
qayta aspiratsiya.

Ushbu maqolada perlokutiv aktning sodir etilishida fonetik va prosodik vositalarning o'рни, fonetik va prosodik vositalarning fonosemantik, alliterativ va ritmik xususiyatlari kabi omillar kabi masalalar yoritilgan.

¹ Acting Professor of the Department of Primary Education, Andijan State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy in Philology (PhD).

Фонетические и просодические средства в перлокации

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

фонация,
мелодия,
тон,
интенсивность звуков,
темп и пауза,
мелодика,
фонация,
артикуляционные
состояния,
темп речи,
аспирация,
реаспирация.

В данной статье рассматривается роль фонетических и просодических средств в выполнении перлокутивного акта, такие факторы, как фоносемантические, аллитерационные и ритмические свойства фонетических и просодических средств.

So'zlovchi tomonidan uzatilayotgan barcha nutqiy birliklar performativ (ijro etuvchi) xususiyatga ega bo'lib, so'zlovchi ularni adresatga ta'sir o'tkazish maqsadida muloqot vaziyatiga moslab tanlaydi. Bunda u adresatning yoshi, jinsi, psixofiziologik belgilari, o'ziga nisbatan rol-status munosabati kabi qator sosial jihatlarini e'tiborga oladi va suhbat mavzusi mos kelishi mumkin bo'lgan ob'yektni tanlaydi, kerakli narsani ko'rsatadi. Shu bilan birga, muayyan nutqiy vaziyat talabi bilan lokutiv, ya'ni talaffuz akti qandaydir maqsadda kerak bo'ladi.

J. Serl P. Graysning "ma'no" tushunchasi xususidagi fikriga tayanib, nutqiy aktdan maqsad tinglovchiga ta'sir ko'rsatish ekanligiga urg'u beradi. Nutqiy akt, odatda, tovushlarni talaffuz qilish yoki harflarni yozish orqali hosil bo'ladi. Odatda, inson morfemalar zanjiri orqali shakllangan ifodani gapirganda, nimanidir nazarda tutadi va aytilgan narsa ma'noga ega bo'ladi. P. Grays ma'no tushunchasi talqinida quyidagi tahlilni beradi: "A" (so'zlovchi) X (ifoda) bilan biror narsani nazarda tutgan degan ma'noni anglatadi. "A" nazarda tutgan narsani tinglovchi anglab olishi kerak deb hisoblaydi" [1]. Menimcha, sub'yektiv ma'no tahliliga bu samarali yondashuv, birinchi navbatda, ma'no tushunchasi va niyat tushunchasi o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni ko'rsatadi, ikkinchidan, tildan foydalanish uchun muhim deb hisoblangan narsani qamrab oladi [2]. Demak, muloqot qilishdan maqsad muayyan hukmning haqiqati haqida ma'lumot berish va unga ishontirish uchun ma'lum tovushlar vositasida ta'sir ko'rsatishdir.

Fonetik va prosodik vositalarning fonosemantik, alliterativ va ritmik xususiyatlari kabi omillar og'zaki nutq uchun xarakterlidir.

S. Axmanova **prosodiya** atamasiga quyidagicha ta'rif beradi: «asosiy tonning ko'tarilishi va pasayishi (*melodika*), kuchli va kuchsiz urg'ular taqsimoti (*dinamika*), nutqning tez yoki sekinligi (*temp*) hamda talaffuz uzilishi (*pauza*) kabi nutq supersegment vositalarining birikish tamoyillari haqidagi ta'limotdir" [3].

N.A. Baskakov, A.S. Sodiqov, A.A. Abduazizovlarning "Umumiy tilshunoslik" darsligida prosodik vositalar xususida bahs yuritiladi. "Prosodik farqlanish vositalariga har xil tillarda urg'u (so'z va gap (faza) urg'usi), *ton*, *cho'ziqlik*, *pauza*, *temp*, *tembr*, *ohang* va bo'g'inlarga xos bo'lgan *bo'g'in cho'qqisi* («вершина слога»), bo'g'inning oldi va orqasidan ulanuvchi vositalar hamda segment fonemalarning ba'zi belgilari – *aspiratsiya*, *qayta aspiratsiya* ("preaspiratsiya"), *singarmozizm*, *bo'g'izni qisish* kabilar kiradi. Bu vositalar "prosodemalar" deb ham yuritiladi" [4].

Suyun Karimov nutqning individual xarakteri haqida gap ketganda uning ijrochisi muayyan sub'yekt ekanligini e'tibordan qochirmaslik lozimligini ta'kidlaydi. Bu sub'yekt ruhiyatining nutq ijrosi paytidagi turli-tumanligi mutlaqo bir-biriga o'xshamaydigan, boshqalar takrorlay olmaydigan nutqiy shakllarni vujudga keltiradi. Aytaylik, bir semantik-stilistik ma'noni ifodalash uchun tavsiya etilgan bir xil fonetik vositalardan foydalanilganda ham uni amalga oshirayotgan har bir individ nutqidagi tovushlar tovlanishi boshqa so'zlovchi nutqidagi o'zgarishlardan farqlanadi [5]. Shu ma'noda nutqiy ta'sirni kuchaytirishda *emfatik urg'u, ohang, pauza* kabi prosodik vositalarning ahamiyatini o'rganishni taqozo qiladi.

I.M. Dzyaloshinskiy tildagi prosodik vositalar sifatida quyidagilarni belgilaydi: *intonatsiya, ovoz registri* (registrning past va o'ta past ovozi, ayniqsa, ta'sirchan va hukmron ovoz sifatida qabul qilinadi), *fonatsiya* (ovozdagi zo'riqish, "jarangdor fonatsiya", bo'shashgan ovoz) va *artikulyasion holatlar, nutq tempi va pauza*.

Keyingi yillarda nutqiy faoliyat jarayonida prosodik vositalarning o'rni va ahamiyatini o'rganishga e'tibor qaratila boshladi. Bu borada, xususan, M.M. Gaziyevaning muloqot jarayonida prosodik vositalarning lingvopragmatik xususiyatlarini tadqiq qilishga yo'naltirilgan ishi diqqatga sazovor [6]. Muallif prosodik birliklar sifatida *melodika, urg'u, pauza, temp va tembr* kabilarning funksiyalari hamda chegaralarini aniqlash; prosodik vositalarning gapning kommunikativ tiplarini shakllantirish, nutqiy aktlar hosil qilish, gapning aktual bo'linishidagi tema va remani ajratish, nutqda turli bo'yoqlarni ifodalash kabi pragmatik funksiyalarini asoslash; gapning aktual bo'linishida tema va remani ajratish urg'uning intensiv harakati va nutqning melodik harakati orqali amalga oshirilishi masalalarini tadqiq qilgan.

M.M. Gaziyeva muloqot jarayonida prosodik vositalarning ahamiyatini nutqiy akt bosqichlari strukturasida tahlil qiladi. Bir o'rinda: "Og'zaki nutqda intonatsiya nutqiy aktlarni ifodalovchi asosiy vosita sanaladi. Intonatsiya komponentlari – melodika, urg'u, pauza, temp va ovoz tembr turli mazmundagi nutqiy aktlarni hosil qilishda o'ziga xos funksiyalari bilan ishtirok etadi. Asosiy ovoz toni chastotasi va urg'uning intensiv harakatlari akustik parametr chegaralari bilan nutqiy aktlarni o'zaro farqlaydi" deb tavsiflasa, boshqa bir o'rinda: "nutq hosil bo'lishining ilk bosqichi sifatida lokutiv akt *fonetik-prosodik sathga* mansub hodisa hisoblanadi. Segment vositalar talaffuzidayoq so'zlashuvchilarning nutqida *fonatsiya, ohang, ton, tovushlarning intensivligi, temp va pauza* kabilar hisobga olinadi. So'zlashuvchilarning kommunikativ niyati, nutq vaziyati va kontekstga muvofiq tarzda segment birliklarni talaffuz qilish jarayoni lokutiv akt deb yuritiladi... Illokutiv akt jumla tarkibidagi so'zlovchining maqsadini ko'rsatuvchi asosiy axborotlardan biri sanaladi va u *intonatsiya orqali* ifodalanadi" [7] – deb yozadi. Shu tariqa, aynan, ana shu lokutiv va illokutiv aktlar samaradorligi perlokutsiyani yuzaga keltiradi. Demak, nutqiy aktlarning mazmunan turlicha bo'lishi va shunga muvofiq tarzda perlokutsiyaning mohiyati intonatsiya komponentlariga bog'liqdir.

Olimboy eski "Ij" motosiklining pedalini bir tepib o't oldirdi-da, hayo-huy deb qishloqni qoq ikkiga bo'lgan yagona ko'chadan Obshir qishloqqa – yuqoriga qarab yo'l soldi. Uning ortiga yopishib olgan bolakay chiyildoq, quloqni teshguday ovozda jar solardi.

– Hama-a-a, To'lqin tanknikiga to'yga-aaa... To'yga-a-a-a-a-yov. To'lqin tanknikiga-a-a-a, to'y-ga-a-a-a-a!!!

Hovlisi adog'idagi ariq bo'yida tahorat olayotgan Ro'zi maxsumning ichida og'riq turdi, yuragini nimadir chimillatib chaqqanday bo'ldi. Tolning bilakday novdasiga orqasini berib o'tirib oldi. Bolakayning chiyildoq ovozi maxsumning asabini qaqqshatdi, chakka tomirlari lo'qillab og'ridi.

– Xursand kalning nevarasiga o'xshaydi. Tagi pastning **ovozi buncha sovuq bo'lmasa**, – g'udrandi maxsum, so'ng yuragini kuydirayotgan o'tdan qutilish uchun shaldirab oqayotgan ariq suvidan beixtiyor hovuchlab-hovuchlab icha boshladi.

(Q. Norqobil, "Osmon ostidagi sir")

Ko'chada Jamshid kutib turgan edi. Elchin uni ko'rmaganday o'tib ketmoqchi bo'ldi. Ammo sergaklikda uncha-buncha odamga dars bera oladigan Jamshid uning yo'lini to'sdi.

– Siz bu yoqqa chiqing, – **dedi qat'iy ohangda.**

"Demak, Asadbek olib kelishni buyurgan", deb o'yladi Elchin. U bir to'xtamga kelib ulgurmay, Jamshid orqaroqdagi doirachiga **buyurdi**:

– Torni mana bu moshinga qo'ying. Hofiz akangiz biz bilan birga ketadilar.

Elchin Jamshid bilan g'idi-bidi aytishni o'ziga ep ko'rmay, mashinaga o'tirdi. (T. Malik, "Shaytanat", 1-kitob, 168-b.).

Jamshidning ovozidagi qat'iy ohang, buyruq akti Elchinni ham, shofyorni ham bo'ysunishga majbur qildi. Bu vaziyatda Jamshidga kuch bergan *bilvosita kommunikativ ta'sir* Asadbek shaxsiga tegishli edi.

M.M. Gaziyeva intonatsiya va gapning aktual bo'linishi xususida ikki xil qarash mavjudligi xususida fikr yuritib, L.R. Zinder nazariyasiga ko'ra, mantiqiy urg'uning funksiyasiga asosan intensivlik gapning aktual bo'linishida asosiy vazifa bajarishini, xususan, mantiqiy urg'u tushgan bo'lak rema hisoblanishini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi eksperimental-fonopragmatik kuzatishlar natijasida intonatsiya va gapning aktual bo'linishi haqidagi L.R. Zinder qarashlarining ilmiy jihatdan asosli ekanligini ko'rsatadi, degan xulosaga keladi: "og'zaki nutqda intonatsiya gapning aktual bo'linishi bilan aloqador bo'lib, urg'uning intensivlik harakati gapda mantiqiy urg'uni belgilaydi. Melodika esa unga ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatadi" [8].

So'zlovchining ovoz darajasidagi bo'yoqdorlik perlokutsiyani ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Quyidagi misollarda buni yaqqol ko'rishimiz mumkin:

1) To'ychi polvon To'lqinni ko'chada tutdi. Polvonni ko'rib Xursand kalning darvozasiga o'zini uraman deb taysallagan edi, ulgurolmadi, **polvonning gurillagan ovozidan joyida toshday qotdi**:

– Hov bola, beri ke! Qochma, o'g'lim! (Q. Norqobil, "Osmon ostidagi sir")

2) – Men oshnam bilan gaplashib olay, malol kelmasa siz chiqib turing.

Tabibboshi malol kelganini yashirmay chimirilib qo'ydi. Elchin buni sezib endi **qat'iyroq, buyruq ohangida dedi**:

– Siz hujjatlarni to'g'rilang, hozir ketamiz.

– Men darrov chiqara olmayman, yaxshi yigit. Maslahatlashib olishim kerak.

– Maslahat pishgan! – dedi Elchin **ovozini bir parda ko'tarib**. – Asadbek ikkita gapni yoqtirmaydi.

Tabibboshining rangi bo'zardi. Lablari titradi... Rangining bo'zargani, lablarining titrashi g'azabdan emas, qo'rquvdan edi. U ortiqcha gap aytib yuborganini sezdi. (T. Malik, "Shaytanat", 1-kitob, 8-b.)

3) – To'xta! Gapni chaynama. – Jalil uning tizzasiga shap etib urdi. – Diplomim bo'lmasa ham miyam ishlab turadi. O'zingni qiynama, bo'ladigan gapdan gapir. Samandarni Xudo rahmat qilsin. Sen bilan men bir qop-bir qop gunohni orqalab boramiz u yoqqa. Samandar esa begunoh ketdi. Bu dunyoning g'alvalarini ko'rmay ketdi. Xudoning suygan bandasi ekan. Endi u dunyoda huru g'ilmonlar bilan ayshini surib yurgandir.

Jalilning **baland ovozda aytgan bu gaplari Asadbekka quvvat berganday sergaklantirdi**. O'zidan o'zi nafratlandi...

– *Jalil*, – *bu safar Asadbekning ovozi dadilroq yangradi*, – *sen ketaver*. (T. Malik, “Shaytanat”, 1-kitob, 16-b.)

– Bu yig'ilishimiz to'satdan chaqirilgani bois, birortangizda aniq reja yo'q! – o'rtadagi sukunatni vazirning o'zi buzdi. **Uning tahlikali ovozidan atrofdagilar hushyor tortdi**. (A. Mirzo, “Ajal bilan yuzma-yuz”)

Ushbu matnlardagi *gurillagan*, *baland*, *qat'iyroq*, *buyruq ohangida*, *ovozini bir parda ko'tarib*, *tahlikali* kabi sifatovchi belgilar ovoz tembrining turli situativ vaziyatlarda perlokutiv natijani yuzaga keltiruvchi fonetik-prosodik vosita vazifasini bajarganligini ko'rsatadi. *Toshday qotdi rangi bo'zardi*, *lablari titradi*, *sergaklantirdi* kabi holatni tavsiflovchi fe'llar esa perlokutsiya natijali bo'lganligini ifodalaydi.

O'zgachaligi bilan ajralib turadigan yoki taniqli (shuningdek, parodiya qilingan) individual ovoz ham o'ziga xos ta'sir vositasi bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Grice P. Meaning. The Philosophical Review, 1957 – P.77-88.
2. Серль Ж. Что такое речевой акт? Перевод с английского И. М. Кобозевой// Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XVII/ 1986. – С. 151-170.
3. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ, 1969. – С.367.
4. Баскаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 63/
5. Каримов С. Ўзбек тилининг фонетик стилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2016. – Б.17.
6. Газиёва М.М. Мулоқот жараёнида просодик воситаларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: филол.фанл.бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс.автореф. – Тошкент, 2018.
7. Газиёва М.М. Мулоқот жараёнида просодик воситаларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: филол.фанл.бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс.автореф. – Тошкент, 2018. – Б. 20.
8. Газиёва М.М. Мулоқот жараёнида просодик воситаларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: филол.фанл.бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс.автореф. – Тошкент, 2018. – Б. 21.